



FARG'ONA VILOYATI BUVAYDA TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2025-yil 8-aprel

50-11-154-F/25

Buvayda tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi “Budget kodeksi”ning 28, 73-moddalari va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 21-1-moddalariga asosan:

1. Buvayda tuman hokimi o‘rinbosari X.Umrzaqovning bildirishnomasini inobatga olib, tuman hokimi o‘rinbosari X.Umrzaqovning Xitoy davlatiga xizmat safari munosabati bilan, yo‘l chiptalari, mehmonxona va kunlik xarajatlari uchun 40.0 (qirq million) mln.so‘m mablag‘ tuman mahalliy budjetining 2025-yil zaxira jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan tuman hokimligiga ajratilsin.

2. Tuman hokimligi bosh hisobchisiga:

- ajratilgan mablag‘lardan samarali foydalanish va uning maqsadli, to‘g‘ri yo‘naltirilishini ta‘minlash;
- moliyalashtirish manbasini ochish uchun belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarni tegishli Iqtisodiyot va moliya hamda G‘aznachilik bo‘linmalariga taqdim etilishini ta‘minlash vazifalari yuklatilsin.

3. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limiga ajratilgan mablag‘lar doirasida xarajatlar smetasini belgilangan tartibda ro‘yxatga olish, tuman g‘aznachilik bo‘linmasi (Sh.Soliyev)ga to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirish vazifalari topshirilsin.

4. Ushbu farmoyishning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari-Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i D.Maxsitaliyev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



**IBRAGIMOV
BEXZOD.ODILJONOVICH**